



O'ZBEKISTON VA TURKMANISTONNING MADANIY GUMANITAR HAMKORLIGI TARIXI (1991-2025-YILLAR)

Tajimuratov Doniyor Baxromovich

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek va Turkman xalqlarining azal-azaldan yaqin do'st bo'lib yashaganliklari, 1948-yil Ashxobod zilzilasi oqibatlari, Turkmanistondagi tosh davri yodgorliklari, 1991-2016-yillarda jabr chekkan ikki xalq ahvoli, 2017-yil 25-yanvar kuni Ashxobodda bo'lib o'tgan Savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bo'yicha o'zbek-turkman qo'shma komissiyasi, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Turkmanistonga 2017-yil mart oyida amalga oshirgan ilk xorijiy tashrifi, 2016-yil sentabrda Turkmanistonda, 2017-yil 11-13-aprel kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan "Turkman kinosi kunlari" tadbiri, "O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — O'mon" yo'nalishidagi transport yo'laklarini rivojlantirish, buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumlul Firangiy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash tadbiri, O'zbekiston sport delegatsiyasining 2017-yilning sentyabr oyida Ashxobodda o'tgan V Yopiq inshootlarda va jang san'atlari bo'yicha Osiyo o'yinlarida ishtiroki, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga O'zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti – "Oliy Darajali Do'stlik" ordenini topshirishi, Turkmaniston-O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy gaz quvuri qurilishi, 2025-yil 4-5-avgust kunlari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ordeninining topshirilishi, muhtaram Prezidentimizning qizlari dunyodagi eng kuchli lider dunyodagi 8 mlrd xalq taqdirini o'ylayotgan va 200 ta davlatga yordam berayotgan hurmatli Saida Shavkatovna Mirziyoyevaning 2025-yil 29-mart



kuni Oguljahan Gurbanguliyevna Atabayeva taklifiga binoan Arqadag' shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyadagi ishtiroki haqida ma'lumot beriladi

Kalit so'zlar: O'zbek va turkman xalqlari do'stligi, 1991-2016-yillardagi O'zbekistondagi ayanchli voqealar, Turkmaniston hududi va aholisi haqida, O'zbekistondagi 206 mingdan ziyod turkman fuqarolari, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon yo'nalishidagi transport yo'lagining qurilishi, O'zbekiston ta'lim muassasalaridagi turkman fuqarolari, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2024-yil 11-oktabr kuni Ashxobodda turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300 yilligiga bag'ishlangan "Zamon va sivilizatsiyalarning o'zaro bog'liqligi – tinchlik va taraqqiyot asosi" xalqaro forumdagi ishtiroki

Turkmanistonning Kopetdog' etaklarida, Kaspiy dengizi bo'ylarida, Qizilqum va Qoraqum ichkarisidagi qadimgi ko'llar atrofida ashel, levallua va muste, qadimgi tosh asrining o'rta va so'nggi bosqichi, mezolit va yangi neolit tosh asrining hamma bosqichlariga mansub yodgorliklar topilgan.¹

Mashhur arxeolog olim A.P.Okladnikov va uning shogirdlari olib borgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida 1947-yilda Turkmanistonning janubidagi Kopetdog' etaklaridan ilk tosh asriga mansub yodgorliklar topildi va o'rganildi. Turkmanistonning janubidan topilgan ilk tosh asri yodgorliklari orasida Yangaja va Qora Tanger joy-makonlari alohida o'rinni egallaydi. Arxeologlar 1947-yil Yangaja va Qora Tanger oralig'idagi joydan juda qadimiy siniq uchrindi va ikkita qo'l chopqini topganlar. Tosh qurollar har tomonlama o'rganilishi natijasida ularning sanasi so'nggi ashel davriga mansub ekanligi aniqlangan. Bu mil.avv 200-150 ming yil qadimiy davrga to'g'ri keladi.² Ibtidoiy davrlarda ham ikkita davlatda ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz yashaganligini ko'rishimiz mumkin. 1991-2016-

¹ J.Kabirov, A.Sagdullayev. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent "O'qituvchi" 1990. 12-13-betlar

² Shu manba 24-bet



yillarda inkor qilib bo'lmis haqiqatni tan olmaslik sodir bo'lgan. Bunga O'zbekistonning 1-Prezidenti aybdor bo'lgan. U bilimsiz bo'lgan va diktatorlik, zo'ravonlik yo'li bilan 25 yil davomida davlatni boshqargan. Bu esa O'zbekistonning tashqi siyosatiga yomon ta'sir ko'rsatgan natijada boshqa davlatlar vatanimizni yomon ko'rib qolishgan.

Joytunliklar miloddan oldingi VI-V-mingyilliklarda yashab, asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug'ullanganlar. Ularda ona urug'i hukm surib, xo'jalikda ayollarning mavqeyi baland bo'lgan. Joytun – O'rta Osiyodagi ilk dehqonchilik madaniyatining eng qadimgi va eng nodir yodgorliklaridan biri hisoblanadi.³ Janubiy Turkmanistonning eneolit zamoni makonlarida muvaffaqiyatli va keng ko'lamda olib borilgan ilmiy tekshirishlar XX asrning 50-yillari bilan bo'g'liqdir. Yodgorliklarni tekshirishda B.A.Kuftin, V.M.Masson, V.I.Sarianidi, O.K.Berdiyev, va I.N.Xlopin va boshqalar katta xizmat ko'rsatdilar.⁴ Bronza davriga oid makonlardan Namozgohtepa, Anovtepa, Oqtepa, Oltintepa, Tekkemtepa, Gonurtepa va Tog'oloqtepa mashhurdir.⁵

O'zbek va turkman xalqlari azal-azaldan yaqin do'st, ahil qo'shni, strategik hamkor sifatida mushtarak maqsadlar bilan yashab kelgan. Shu sababli, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning ildizi uzoq tarixga borib taqaladi va o'zaro hurmat, ishonch asosiga qurilgan.

O'zbekiston birinchilardan bo'lib Turkmaniston xalqiga 1948-yil Ashxobod zilzilasi oqibatlarini bartaraf etishda yordam bergan. Ushbu voqea xronikasida qayd etilganidek, Toshkent zilzilasi haqidagi ma'lumotlarni birinchi bo'lib qabul qildi. O'zbekiston shifokorlari darhol Ashxobodga jo'nab ketishdi. Minglab yaradorlar va yetim bolalar O'zbekistonga ko'chirildi.⁶ Ushbu fakt ikkinchi jahon urushi yillarida ham ikki davlat o'rtasidagi do'stlik aloqalari yaxshi bo'lganligidan

³ J.Kabirov, A.Sagdullayev. O'rta Osiyoarxeologiyasi. Toshkent "O'qituvchi" 1990. 81-82-betlar

⁴ Shu manba107-bet

⁵ Shu manba120-bet

⁶ <https://isrs.uz/oz/maqolalar/ozbekiston-va-turkmaniston-asrlar-davomida-sinalgan-hamkorlik>



dalolat beradi. Lekin aynan 1991-2016-yillar davomida bir daryodan suv ichgan qardosh, do'st davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar to'xtab qolgan. Bunga O'zbekiston 1-Prezidentining turkman xalqini yomon ko'rganini, shu sababdan uning shaxsiy manfaati sababli ikki davlat xalqi jabr chekkanini, azoblanganini ko'rishimiz mumkin.

Turkmaniston, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan solishtirganda, juda katta hududiy ustunlikka ega mamlakat. Butun Markaziy Osiyo mintaqasining hududi 6 mln km² ga teng bo'lsa, shuning 488,100 km⁷ hududi Turkmanistonga tegishli. Turkmaniston - O'zbekistonga yaqin davlat, chegaralari uzunligi 2356,31 km⁸. Bu ikki mamlakatga butun Markaziy Osiyo mintaqasiga taalluqli dolzarb muammolarni hal qilish yo'llarini birgalikda aniqlash imkonini beradi. Bu esa mintaqaviy miqyosdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish uchun dunyoning yetakchi kompaniyalari va sarmoyadorlari e'tiborini jalb qilishning asosiy sababidir.

Turkmanistonda ham O'zbekiston kabi ulkan tabiiy zaxiralar bor, lekin O'zbekistonga suv va havodek muxtoj. O'zbekiston olib borgan axmoqona siyosat sababli 2016-yilgacha juda ko'plab chaqaloqlar nogiron tug'ilgan, qishloq xo'jaligi yerlariga paxta ekilishi natijasida millionlab odamlar kasal bo'lgan, kelajak avlod maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'qish o'rniga savodsiz bo'lib qolgan. Shu vaqtda bu muammolar xalqimizga aytilmagan va aytish mumkin bo'lmagan. Muammoni ko'tarib chiqqanlar qamoqqa tashlangan. Turkmaniston esa 1991-yildan 2016-yilgacha o'z tabiiy zaxiralarini xalqining yaxshi yashashi uchun sarflagan va u davlatda og'riqli masalalar hozirgacha yetib kelmagan.

2017-yil 25-yanvar kuni Ashxobodda bo'lib o'tgan Savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bo'yicha o'zbek-turkman qo'shma

⁷https://uz.wikipedia.org/wiki/Markaziy_Osiyo/Qozog%CA%BBiston/O%CA%BBzbekiston/Turkmaniston/Tojikiston/Qirg%CA%BBiziston 06.10.2021

⁸<https://kun.uz/uz/news/2018/08/16/markazij-osiya-egaralarni-delimitacia-va-demarkacia-kilisidagi-asosij-muammolar>. 06.10.2021.



komissiyasining 13-majlisida O‘zbekiston va Turkmaniston hamkorligini jadallashtirish masalalari muhokama qilindi. O‘zbekiston va Turkmaniston mintaqadagi umumiy muammolar, jumladan, suv resurslaridan ratsional foydalanish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratishini ta’kidlab o‘tdi.⁹ Chunki 2017-yilgacha ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari amalga oshirilmagan edi.

Bugungi kunda izchil, o‘zaro manfaatli xususiyat kasb etgan, yuqori o‘sish sur‘atini olgan ikki qardosh mamlakat munosabatining joriy holatiga muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Turkmanistonga 2017-yil mart oyida amalga oshirgan ilk xorijiy tashrifi puxta poydevor qo‘ygan edi.¹⁰ Ochiq, o‘zaro ishonch singdirilgan muloqot o‘rnatilishi, shuningdek, ikki mamlakat Prezidentlari o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik barcha yo‘nalishlardagi munosabatni yanada kengaytirish uchun asos yaratdi. Shu yili ikki tomonlama va ko‘p tomonlama doiralarda bir qator oliy darajadagi uchrashuvlar o‘tkazildi va diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yangi sifatli bosqichiga ko‘tarildi. Buning yorqin dalilini, 2017-yilning mart oyida imzolangan “Strategik sherikchilik to‘g‘risidagi”¹¹ shartnoma imzolandi.

2016-yil 26-sentabr kuni O‘zbekiston va Turkmaniston xalqlari ko‘p yillar davomida intiqlik bilan kutilgan do‘stlik rishtalarini tiklash ishlari boshlandi va Turkmanistonda “O‘zbek kinosi kunlari” o‘tkazildi. 2016-yil sentabrda O‘zbekistonda axmoq 1-Prezident I.A.Karimov vafotini o‘zbek va turkman xalqlari xursandchilik bilan qarshi olishdi chunki ungacha axmoq 1-Prezidentning axmoqona siyosati natijasida ikki xalq jabr chekkan. 2017-yil 11-13-aprel kunlari Toshkent shahrida “Turkman kinosi kunlari” bo‘lib o‘tdi. “O‘zbekkino” Milliy agentligi bosh direktori Otabek Musayev - Kino xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni

⁹ <https://www.gazeta.uz/oz/2017/01/27/turkmaniston/>

¹¹ <https://lex.uz/docs/-4647206>



mustahkamlashda ishonchli ko‘prik vazifasini o‘tashi haqida gapirdi. Tadbirda so‘zga chiqqan Turkmaniston televideniyasi Kino ishlab chiqarish bo‘limi bosh koordinatori Toygeldi Olloyorov, Turkmaniston televideniyasi bosh rejissyori Vepa Ishanguliev, Turkmanistonning O‘zbekistondagi elchixonasi maslahatchisi Xandurdi Turdiyev va boshqalar ikki mamlakat o‘rtasidagi madaniy hamkorlik istiqbollari, kino ustalarining kelgusida rejalashtirilayotgan loyihalari xususida so‘z yuritdilar.

Kino kunlari davomida turkman kinoijodkorlari yaratgan “Ot-murod”, “Maxtumquli”, Kopetdog‘ – askarning orzusi”, “Sayis”, “Muhabbat merosi”, “Qumli keldin qo‘shiqdari” singari filmlar namoyish etildi.¹²

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ikki do‘st davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish, hamkorlikning yangi yo‘nalishlari va istiqbollari belgilagan holda o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish borasida tarixiy ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari orasida 206 mingdan ziyod turkman birodarlarimiz jonajon yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida mehnat qilmoqda. Turkmaniston bilan yaqin qo‘shnichilik va oqilona tashqi siyosatni amalga oshirish masalasi yillik davlat dasturlari va strategik rejalarda alohida nazarda tutilmoqda.

Kezi kelganda mintaqaning transport-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida dastlabki amaliy qadamlar qo‘yilganini alohida ta’kidlash joiz.


Jumladan, so‘nggi paytlarda turkmanistonlik do‘stlarimiz Amudaryo ustidan Turkmanobod-Forob yo‘nalishida poyezd va avtomobillar o‘tadigan yangi ko‘prikni barpo etishdi. O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon transport-tranzit

¹² <https://darakchi.uz/oz/26064>



yo‘nalishining muhim tarmog‘i hisoblangan ushbu ko‘prik mintaqa davlatlarining tashqi bozorlarga chiqishiga yordam beradi.¹³

Ushbu obyektlarni qurish Turkmaniston orqali Janubiy va Markaziy Yevropa, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga tovarlarni tashish hajmini ko‘paytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tranzit yuk oqimlarini ko‘paytirish va loyiha ishtirokchilarini tashqi bozorlarga eng qisqa va samarali ravishda kirish imkonini beradi. Bundan ko‘zlangan maqsad ishlab chiqarilgan mahsulotlarimizni dunyodagi rivojlangan davlatlarga qimmat narxda sotish. Dunyodagi hozirgi tahlikali, beqaror vaziyatda davlatimiz rahbarining uzoqni ko‘zlab amalga oshirayotgan islohotlari eng to‘g‘ri yechim.




Bundan tashqari “O‘zbekiston-Turkmaniston-Ozarbayjon-Gruziya-Turkiya” transport koridori ham ochildi. Bundan maqsad ishlab chiqarilgan mahsulotlarimizni Yevropa ittifoqi davlatlariga sotish va u davlatlardan mahsulotlarni olib kelish. Markaziy Osiyoni Janubiy Kavkaz va Yaqin Sharq orqali Yevropa va O‘rta Yer dengizi bozorlariga bog‘lovchi strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu koridor Sharq-G‘arb yo‘nalishidagi savdo-sotiq va yuk tashish oqimlarini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni “Transkaspiy xalqaro transport

¹³ Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. “O‘zbekiston” Toshkent 2024-yil. 429-430-betlar



yo‘lagi” sifatida ham tanishadi. Ushbu yo‘nalish xalqaro yuk tashuvlarini tezlashtirish va mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi.



Qardosh xalqlarimiz o‘rtasida madaniy-ma’rifiy aloqalar yil sayin faollashib borayapti, turli konsert va festivallar, ko‘rgazmalar tashkil etilmoqda, madaniyat va kino kunlari o‘tkazilmoqda, yurtimizda turkman milliy madaniyat markazlari ishlamoqda. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan iliq va do‘stona munosabatlar, Prezidentlarimizning siyosiy irodasi va uzoqni ko‘zlagan oqilona siyosati natijasida keyingi yillarda munosabatlarimiz butunlay yangi bosqichga chiqdi. Xalqlarimiz o‘rtasida ishonchli do‘stlik atmosferasi yaratildi. Yurtimizda turkman tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Xususan, O‘zbekistonda turkman tilida ta’lim beradigan 44 ta maktab mavjud.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 19-fevraldagi “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumluli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ham o‘zbek xalqining Maxtumluli Firog‘iy siymosida qardosh Turkmaniston xalqiga, uning boy tarixi va madaniyati, urf-odat va qadriyatlariga hurmat-ehtiromining yorqin ifodasi. Ikki qardosh el uchun



birdek ardoqli bo'lgan shoirning ko'plab asarlari mamlakatimizda muntazam ravishda, yirik adadlarda nashr etilmoqda. Teatrlarimizda shoir haqida spektakllar qo'yilib, o'zbek va turkman kino ustalari hamkorligida badiiy film suratga olinyapti. Ashxobod shahrida turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300 yilligiga bag'ishlangan "Zamon va sivilizatsiyalarning o'zaro bog'liqligi — tinchlik va taraqqiyot asosi" mavzusidagi xalqaro forum o'tkazildi.¹⁴

O'zbek va turkman xalqlarini bir-biriga bog'lab turadigan tarix, madaniyat va urf-odatlar xalqlarimizning umumiy mulkiga aylangan. Bu yaqinlik madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik rivojida mustahkam asos bo'lmoqda. O'zbekiston ta'lim muassasalarida Turkmanistonning 720 fuqarosi tahsil olmoqda. O'zbekiston va Turkmaniston vakillari ikki mamlakatda tashkil etilayotgan turli madaniy tadbirlar, konsertlar, festivallar va tanlovlar, sport musobaqalarida faol ishtirok etmoqda. O'zbekiston sport delegatsiyasi 2017-yilning sentyabr oyida Ashxobodda o'tgan V Yopiq inshootlarda va jang san'atlari bo'yicha Osiyo o'yinlarida ishtirok etdi. Noyabr oyida Turkmanistonda O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi. Ushbu tadbir doirasida mamlakatimiz san'at ustalari va madaniyat arboblari ishtirokidagi konsert, badiiy asarlar ko'rgazmasi tashkil etildi.¹⁵

Turkmaniston mamlakatimizning mintaqadagi asosiy savdo sheriklaridan biri hisoblanadi. O'zbekistondan Turkmanistonga qishloq xo'jaligi texnikasi, meva-sabzavot, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, kimyo va to'qimachilik mahsulotlari, turli xizmatlar eksport qilinadi. Turkmanistondan esa yurtimizga neft mahsulotlari, mexanika jihozlari, polimerlar va boshqa kimyo mollari importi yo'lga qo'yilgan.

Diyorimizda faoliyati Respublika turkman madaniy markazi tomonidan muvofiqlashtiriladigan 6 ta turkman madaniy markazi mavjud. Qoraqalpoq davlat universitetida turkman filologiyasi fakulteti bor. 2017-yili Nukus shahridagi

¹⁴ <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-turkmaniston-dostlik-rishtalari-yanada-mustahkamlanmoqda>

¹⁵ <https://old.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-turkmaniston-hamkorlikning-yangi-bosqichi.html>



Ajiniyoz nomli pedagogika institutida turkman tilini o'qitadigan pedagoglar tayyorlash fakulteti ochildi. Bugungi kunda Urganch, Qoraqalpoq, Buxoro va Qarshi davlat universitetlarida, Buxoro davlat tibbiyot institutida, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialida Turkmanistondan kelgan talabalar tahsil olyapti. Mamlakatimizda Gurbanguli Berdimuhamedovning "Turkmanlarning ma'naviy dunyosi" kitobi o'zbek tilida nashr etilishi O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida juda yaqin do'stona aloqa, davlatlararo samarali muloqot o'rnatilganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. "O'zbekiston" Toshkent 2024-yil
2. J.Kabirov, A.Sagdullayev. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent "O'qituvchi" 1990
3. <https://isrs.uz/oz>
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. <https://kun.uz>
6. <https://www.gazeta.uz>
7. <https://lex.uz>
8. <https://darakchi.uz>
9. <https://parliament.gov.uz>
10. <https://old.uzavtoyul.uz>